

“AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUV NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH VA BAHOLASH”

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195075>

Karamatova Noiba Xusnutdinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Buxgalteriya fakulteti" "Audit" kafedrası katta o'qituvchisi

email: noibakaramatova@gmail.com

Annotatsiya

Tijorat banklarida ichki auditorlik tekshiruv natijalarini auditning xalqaro standartlari asosida umumlashtirish va baholash juda muhimdir. Bu banklarning moliyaviy hisobotlari va ma'lumotlari to'g'risidagi ishonch darajasini oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish va iste'molchilarning qarorlarini yaxshilashga yordam beradi. Maqolada yuqoridagi masalalar ko'rib chiqilgan, auditning xalqaro standartlari asosida auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Tijorat banklar, Ichki audit, moliyaviy operatsiyalar, risklar, moliyaviy-hisob-kitoblar, faoliyat samaradorligi, identifikatsiya, baholash, boshqarish, to'g'ri amalga oshirish, tahlil qilish, metodologiya, moliyaviy risklar.

Auditning asosiy maqsadi tijorat banklari bilan tuzilgan shartnoma asosida tekshirish o'tkazish hisblanadi. Ushbu tekshirish jarayonida ichki auditor tomonidan

auditorlik dalillari yig'iladi va bu dalillar asosida auditorlik hisoboti tuzadi, tijorat banki filialining faoliyati bo'yicha auditorlik xulosasi tayyorlanadi. Ushbu auditorlik

xulosasi tashqi auditorlik xulosasidan farq qiladi. Shu jumladan tashqi auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot ma'lumotlarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishini tasdiqlaydi. Ichki audit bo'linmasi tomonidan filial va ichki bo'linmalarning faoliyati samaradorligi va uning holati tahlil qilinib, uni yaxshilash bo'yicha tegishli tavsiya va moliyaviy faoliyatidagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha o'z tavsiyalarini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tijorat banklarining moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar ichida xorijiy investorlar, banklar va boshqalar payo bo'lishi

tabiiy hol. Shuning uchun ham bunday tijorat banklarida auditorlik tekshirishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida o'tkazishdan manfaatdor bo'ladilar. Shu boisdan tashqi auditorlar tijorat banklarining moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar bo'yicha audit qilib, auditorlik xulosa beradilar.

Tijorat banking filiallari faoliyatida axborot riski darajasini kamaytirish uchun tekshirish natijasi bo'yicha ichki audit hisobotlarida ob'yektiv bo'lishi muhimdir. Tijorat banklari filiallarining hisobotlarini ichki auditdan o'tkazib, auditorlik hisobotlarini tuzish muhim va dolzarb hisoblandi.

Tijorat banki ichki audit bo'linmasi tomonidan tuzilgan rejaga ko'ra, uning filiallari faoliyatining asosiy me'zonlarini tasdiqlash uchun, ularning hisobotlari ichki audit rejasi bo'yicha har yili ichki audit tekshiruvlaridan o'tishi kerak. Shuning

uchun ham tijorat banklari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirishda filiallar tomonidan tuzilgan hisobot ko'rsatkichlarining asosli bo'lishligi

va ularning ishonchlilik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarida tashqi auditorlik tekshiruv natijalarini umumlashtirish va baholash uchun O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati milliy standarti (AFMS №70) "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulolasi" nomli asosida yuritiladi. Bundan tashqari, ushbu masalalar bo'yicha xalqaro darajadagi auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida xalqaro standarti (XAS№700) "Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobot to'loqkomplekti bo'yicha mustaqil auditorning (xulosasi) hisoboti" nomli standart asosida tashqi va ichki audit hisobotlari uchun asos bo'luvchi standart hisoblanib, unda auditorlik hisoboti, uning elementlari va mazmuni masalalari keng yoritilgan.

Tijorat banki bo'linmalarining faoliyatini ichki audit tekshiruvini o'tkazish chog'ida asosan tekshirilayotgan filial va bo'linmalarining dastlabki hujjatlari, hisb registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baxolanadi. Faqat ayrim hollardagina ichki audit tomonidan taxmin va hisobkitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baxolaydilar.

Audit natijalarini umumlashtirish bilan birga auditor, auditorlik tekshiruvini yakunlash jarayonida audit dasturining barcha bandlari bajarilganligini tekshirishi lozim. Ichki auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlashtirilgan va baxolangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiq:

- audit rejasida ko'zda tutilgan davr ichidagi filialning moliyaviy- xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida hisobot;

- filialning buxgalteriya balansi va moliyaviy hisoboti bo'yicha auditorlik xulosasi.

Tijorat banklari ichki auditing vujudga kelishida quyidagi omillar O'zbekistonda ichki auditorlik faoliyatining vujudga kelishini ob'yektiv zaruriyat qilib qo'ydi:

- turli mulchilik shakllarining vujudga kelishi, shuningdek, kapitalning shakllanishi, investorlar sinfining aydo bo'lishi;

- bazel standartlari talabi asosida ichki auditorning majburiyligi;

- moliyaviy hisobot ob'yektiv axborotiga asoslanib qarorlarni qabul qilish;

- dalolat berish, ya'ni turli emitetlarning hisobotlari to'g'riligi to'g'risida mutaxassis sifatida o'z fikrini bildirish uchun alohida maxsus xulosa zarur bo'lib qoldi;

- aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, tijorat banklarining Bank Kengashi, Bank boshqaruvi bilan mulkdorlarning bevosita aloqa qilishi va xolisona axborot berish;

- tijorat banki filiali va bo'linmalari faoliyatiga ob'yektiv baxo berish zaruriyatining rivijlanishi.

Tashqi (mustaqil) auditorlar o'z faoliyatida ko'p jihatdan ichki audit natijalariga tayanadi. Umuman olganda ichki auditorlar o'zlari ishlaydigan korxonalar faoliyatini tekshiradi. Ammo, ular qoidaga ko'ra, korxonalar ma'muriyati (direktorlar kengashi) tarkibiga kiradilar. Bunday nazorat (o'z-o'zini nazorat qilish) shakli AQSHda o'tgan, XX asrning 30-yillarida yuzaga kelib, keyinchalik G'arbiy Yevropa va Yaponiyada tarqalgan.

Bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan Yevropa va Amerika mamlakatlarida auditorlik faoliyati ko'p asrlik tajribaga ega. Audit rivojlangan huquqiy iqtisodiyot va zamonaviy huquqiy jamiyat sifatida aynan Yevropada shakllangan (uning tarixi juda katta bo'lib, alohida tadqiqot obekti bo'lishi mumkin). Auditning xalqaro nazariyasi va amaliyoti raqobatli kurash sharoitida yuzaga kelgan. Xalqaro amaliyotda bularning barchasi ushbu materiallarni tegishli tadqiqotlar va keng ommaviy muhokamalar bilan birga olib borilgan. Natijada, hozirgi davrga kelib auditning mustahkam xalqaro huquqiy asosi yaratildi, uni tashkil etishning batafsil shakllari ishlab chiqildi, auditorlar uchun keng ko'lamdagi uslubiy materiallar nashr qilinmoqda va doimiy ravishda to'ldirib borilmoqda. Ularda auditorlik faoliyatining asosiy tushunchalari, terminlari va kategoriyalari ta'riflangan va turkumlangan.

Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi uchun javobgarlik. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq auditorlik tekshiruvini o'tkazmay

tuzilgan yoxud auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha tuzilsada, lekin auditorlik tekshiruvi davomida auditor (auditorlar) tomonidan olingan va o'rganilgan xo'jalik yurituvchi subyekt hujjatlari mazmuniga muvofiq bo'lmagan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilgan hisoblanadi.

Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilganligi auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning amal qilishini belgilangan tartibda tugatishga, shuningdek aybdor shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Auditorlik xulosasi buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ishonchligi axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik firmasiga ishonch bildiradilar. Ushbu ishonch, eng avvalo, auditor tomonidan bajarilgan ishning sifati bilan qo'lga kiritiladi va oqlanadi.

Auditorlik tanlashda statistik usullarni qo'llash har biridagi elementlar o'xshash xossalarga ega bo'lgan to'plamlar (quyi to'plamlar)ga nisbatan qo'llanganda samarali bo'lishi mumkin. Masalan, bu mahsulot(ish, xizmat)larni sotish chog'ida xaridorlarga taqdim etiladigan schyot-fakturalarni tekshirishda qo'llanilishi mumkin. Chunki, schyot-fakturalar yagona shaklga ega, bitta faylda saqlanadi va ketma-ket tartib raqami beriladi. Ammo, mol yetkazib beruvchilardan olingan schyot-fakturalarni tekshirishda, ularning mol yetkazib beruvchilar tomonidan raqamlanishi va tartib raqamlari kelib tushish tartibiga mos kelmasligi bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Bu holda auditor, agar statistik tanlash usullarini qo'llamoqchi bo'lsa, tekshiriladigan to'plamdagi barcha schyot-fakturalarni o'zi raqamlab chiqishi mumkin (faqat tekshiruv maqsadida). Ko'p hollarda esa mijoz-korxonadagi hujjatlar aylanish grafigining tuzilish prinsipi statistik tanlashni to'g'ri amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, hujjatlarni arxivga topshirishda stratifikatsiyalashni amalga oshirishga imkon beradigan bir xillik buziladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ichki auditorlik tekshiruvlar, tijorat banklarining faoliyatini obyektiv va professional ravishda baholash uchun juda muhimdir. Bu tekshiruvlar, bankning moliyaviy hisob-kitoblari, moliyaviy operatsiyalari, risk boshqarish tizimi va qonunchilikni tekshirishni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori.
2. “Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risida” Nizom Vazirlar Mahkamasi, 16.10.2006y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 992-1-son bilan ro‘yxatga olingan “Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” gi NIZOM 04.04.2000 yil.
4. “Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” NIZOM 3302-/ 07.05.2021y. <https://lex.uz/>
5. A.K.Ibragimov “Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari” Oquv qollanma. Toshkent-2013.
6. AFMS №70 “Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi auditorlik xulolasi”.